



THE HISTORY OF STUDYING IRANIAN TOPONYMY AND THE CURRENT STATE OF RESEARCH

Orzigul Safarmatova

Master’s Degree Student (1st Year)

Higher School of Iranian and Afghan Studies

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

D.A. Azimdjanova

Associate Professor, Candidate of Philological Sciences

Higher School of Iranian and Afghan Studies

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Iran, toponymy, etymology, historical geography, linguistic layers, hydronyms, Iranian studies.

Received: 25.03.26

Accepted: 26.03.26

Published: 27.03.26

Abstract: This article provides a comprehensive overview of the history of the study of Iranian toponymy and the current state of research. In modern Iranian studies, there is a need to systematically study geographical names, analyze their transformation, and summarize the work done by world scientists in this field. The study examines the linguistic and historical stages of place names from the ancient period to the Middle Persian, Arabic, and Turkic layers. The scientific views of research centers and scholars are briefly reviewed.

ERON TOPONIMIYASINI O‘RGANISH TARIXI VA TADQIQOTLARNING HOZIRGI HOLATI

Orzigul Safarmatova

“Eronshunoslik va afg‘onshunoslik” oliy maktabi

1-kurs magistratura bosqichi talabasi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O‘zbekiston

D.A. Azimdjanova

TDSHU, “Eronshunoslik va afg‘onshunoslik” oliy maktabi dotsenti

Filologiya fanlari nomzodi

Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: Eron, toponimiya, etimologiya, tarixiy geografiya, lingvistik qatlamlar, gidronimlar, eronshunoslik.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Eron toponimiyasining oʻrganilish tarixi va tadqiqotlarining hozirgi holati haqida atroflicha sharh beriladi. Zamonaviy eronshunoslikda joy nomlarini tizimli oʻrganish, ularning transformatsiyasini tahlil qilish va bu borada jahon olimlari tomonidan amalga oshirilgan ishlarni umumlashtirish zarurati mavjud. Tadqiqotda joy nomlarining qadimgi davridan oʻrta fors, arab va turkiy qatlamlargacha boʻlgan lingvistik va tarixiy bosqichlari koʻrib chiqiladi. tadqiqot markazlari va olimlarning ilmiy qarashlari qisqacha sharhlab oʻtiladi.

ИСТОРИЯ ИЗУЧЕНИЯ ИРАНСКОЙ ТОПОНИМИИ И СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ИССЛЕДОВАНИЙ

Орзигул Сафарматова

Студентка магистратуры 1 курса

Высшая школа иранистики и афганистики

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

Д.А. Азимджанова

Доцент, кандидат филологических наук,

Высшая школа иранистики и афганистики,

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Иран, топонимия, этимология, историческая география, лингвистические пласты, гидронимы, иранистика.

Аннотация: В данной статье приводится подробный обзор истории изучения и современного состояния исследований топонимии Ирана. В современной иранистике существует необходимость системного изучения географических названий, анализа их трансформации и обобщения работ, выполненных мировыми учеными в этой области. В исследовании рассматриваются лингвистические и исторические этапы развития топонимов — от древнего периода до среднеперсидского, арабского и тюркского пластов. Кратко освещаются научные взгляды исследовательских центров и ученых.

Kirish. Toponimika — bu tilshunoslik, tarix va geografiya fanlari chorrahasida kesishgan soha hisoblanadi. U joy nomlari orqali turli xalqlarning migratsiyasi, madaniyati va dunyoqarashini oʻrganish imkonini beradi. Eron hududi ham oʻzining koʻp ming yillik tarixga egaligi, turli sivilizatsiyalar tutashgan nuqtada joylashgani va yorqin etnik tarkibi bilan toponimik jihatdan butun

dunyodagi eng boy mintaqalardan biridir. Eron toponimiyasi — mamlakat hududidagi tabiiy va madaniy obyektlarning nomlarini o‘z ichiga olgan geografik nomlar majmuidir. Toponimiyaning tarkibi va tuzilishi Eronning geografik o‘rni hamda boy tarixi bilan belgilanadi. Eron toponimiyasini tadqiq etish faqatgina bu mamlakat tarixini emas, balki butun Yaqin va O‘rta Sharq, shu jumladan, Markaziy Osiyo xalqlarining o‘tmishini yoritishda ham g‘oyatda muhim ahamiyatga ega. Chunki eroniy tillar qatlami va undan keyingi davrlardagi turkiy-arabiy ta’sirlar mintaqadagi ko‘plab geografik nomlarning etimologik ildizlarini tashkil etadi. V.A. Juchkevich ta’kidlaganidek, Eronning, shuningdek, Afg‘onistonning ham zamonaviy toponimiyasi arab dunyosidagidek aniq bir xillikka ega emas. Eronning eng mashhur joy nomlarining aksariyati o‘z ildizlari bilan qadimgi va o‘rta fors tillariga borib taqaladi. Ming yillar davomida ma’lum bo‘lgan bir qator toponimlarga misol qilib Kirmon, Hamadon, Go‘rgon, Nishopur, Sheroz, Yazd kabilarni keltirish mumkin. Tabriz, Qazvin, Koson, Qum singari nomlar o‘rta asrlarda paydo bo‘lgan. Yangi toponimlar esa nisbatan ancha kam.

Juchkevichning baholashiga ko‘ra, Eron toponimiyasi kelib chiqishiga ko‘ra uch guruhga bo‘linadi: eroniy, turkiy va arab. Shuningdek, sanskrit elementlari ham uchrab turadi. Eng qadimgi va eng ko‘p sonli qatlamni eroniy toponimlar guruhi tashkil etadi. Bu qatlam oronimlar, oykonimlar hamda gidronimlarda keng namoyon bo‘lgan. Oronimlarga misol sifatida Elvand, Damovand, Sehand, Rizo va «كوه» formati bilan yasalgan nomlarni (Ko‘hi-Bobo, Ko‘hi-Hisor, Zardko‘h, Siyohko‘h va boshqalar); oykonimlarga (Hamadon, Mashhad, Tekob, Farrah); gidronimlarga «رود» formati bilan yasalgan daryolar (Zoyandarud, Sefidrud, Herirud); hamda «دریاچه» va «نمک» formati bilan yasalgan ko‘l nomlarini (Namak, Daryochayi-namak, Namaksar) misol sifatida olishimiz mumkin.

Soni jihatidan ikkinchi o‘rinda turkiy toponimlar turadi. Ular mamlakatning deyarli hamma joyida tarqalgan, biroq eng ko‘p konsentratsiyasi shimoli-g‘arbiy hududlarda kuzatiladi. Masalan, oronimlar: Bo‘zdog‘, Arovandog‘; gidronimlar: Qorasuv, Qizil-Uzen; gibrid toponimlar: Sari-chaman («sari» – turkiy, «chaman» – eroniy), Oqmiyon («oq» – turkiy, «miyon» – eroniy).

Eng kam sonli guruh arab tilidan kelib chiqqan toponimlardir. Ularning asosiy areali mamlakatning janubi-g‘arbida joylashgan. Masalan: Ras-Naband, Ras-Berkan burunlari; ismlardan hosil bo‘lgan oykonimlar: Hakimobod, Solihobod, Qosimobod, Hasanobod va boshqalar.

V.A. Nikonov toponimik tadqiqotlarni xalqlarning ijtimoiy-siyosiy va hatto iqtisodiy tarixini o‘rganishda ishonchli manba deb hisoblaydi. U shunday yozadi: «Toponimlar xalqlarning tili haqida aniq guvohlik beradi. Ular muayyan bir joyga mansubligi ortidan, ular orqali ma’lum bir hududdagi qadimgi tilni tiklash va uning tarqalish chegaralarini belgilash mumkin. Ko‘pgina tillar uchun geografik nomlar yozma yodgorliklardan ko‘ra qadimiyroqdir. Ma’lum bo‘lgan eng qadimgi turkiy matnlar VII asrga, mo‘g‘ulcha matnlar esa XIII asrga borib taqaladi. Biroq ushbu tillardagi geografik nomlar ulardan qiyoslab bo‘lmaydigan darajada qadimiyroqdir» .

Eron toponimiyasi haqidagi dastlabki ma'lumotlar qadimgi "Avesto" va Ahamoniylar davrida yozilgan kitobalarda uchraydi. Biroq, tizimli ma'lumotlar IX–XII asrlarda yashagan musulmon geograflari asarlarida jamlangan. Arab sayyohlari Istarxiy va Ibn Havqal o'z asarlarida Eronning iqlimi, yo'llari va shaharlari nomlarini batafsil keltirganlar. Mashhur arab sayyohi, tarixchi va yozuvchi Yoqut al-Hamaviyning "Mo'jam al-buldon" ("O'lkalar lug'ati") asari, ayniqsa, Eron toponimikasi uchun eng muhim ensiklopedik manba hisoblanadi. Unda har bir joy nomining etimologiyasi haqida o'sha davr tushunchalaridan kelib chiqib ma'lumot berilgan. Yozuvchi yashagan davrda, ya'ni XIII asr boshida Eron islom tamaddunining markaziy qismlaridan biri bo'lgani sababli, kitobda ushbu mintaqaga oid qimmatli ma'lumotlar uchraydi. Muallif Eronning deyarli barcha yirik shaharlarini alifbo tartibida keltirib o'tgan, shaharlarning iqlimi, qurilishi, bozorlari va aholisi haqida batafsil yozgan, Xuroson viloyati haqida alohida to'xtalib, u yerlarni «ilm-fan o'chog'i» deya ta'riflagan, masofalarni «marhala» yoki «farsax» birliklarida o'lchagan.

Yoqut al-Hamaviy o'zining ushbu asarida «Eron» so'zini «Fors» («الفورس») o'lkasi deb ham ataydi. U aksariyat Eron shaharlari nomlarini forscha va arabcha ildizlar bilan bog'laydi, ko'pincha qadimiy afsonalarga yoki tarixiy shaxslarga tayanadi. Ma'lumki, سپاه (sepāh) so'zi qo'shin degan ma'noni anglatadi, shundan kelib chiqib Isfahon nomi "qo'shinlar yig'iladigan joy" degan ma'noni anglatishini ta'kidlaydi. Hamadonni «Ahmadon» yoki «Hagmatana» so'zlaridan kelib chiqqanligi va u yerda Sosoniy podshohlari yashaganligini keltirib o'tadi. Ray shahrini esa dunyoning «fayzi» va «kelinchagi» sifatida ta'riflaydi.

Muallif, shuningdek, Eronni bir nechta yirik tarixiy-geografik o'lkalarga ajratadi: الجبيل (Al-Jibal): Qadimiy Midiya hududi (Hamadon, Isfahon, Kirmonshoh)ni; فارس (Fārs): Eronning janubiy qismi (Sheroz, Istaxr)ni; خراسان (Xurāsān): Mashhad, Nishopur, Tus kabi sharqiy shaharlarni; طبرستان (Ṭabaristān, Māzandarān): Kaspiy dengizi bo'yidagi o'rmonli va tog'li hududlarni qamrab oladi.

Eronlik tarixchi va geograf Hamidulloh Qazviniy tomonidan XIV asrda yozilgan "Nuzhat al-qulub" asari mo'g'ullar istilosidan keyingi Eronning toponimik manzarasini ochib berishga muhim manba hisoblanadi. Kitobda keltirilishicha, hozirgi Qazvin shahri nomi «Kashvin» (chegara artib turuvchi) so'zidan kelib chiqqan bo'lib, u yerda doimiy qo'shin turganini anglatadi. Isfahon - pahlaviy tilidagi «Sipahan» (qo'shinlar yig'iladigan joy) so'zidan olingan deb tushuntiriladi. Tabriz nomini «Tab-riz» (isitmani to'kuvchi/davolovchi) deb izohlaydi. Afsonaga ko'ra, Abbosiy xalifa Horun ar-Rashidning xotini Zubayda xonim u yerda isitmadan qutulgan va shahar shu nomni olgan.

Shuningdek, ayrim toponimlar o'sha hududning suv resurslari yoki iqlimidan kelib chiqib nomlanganligi alohida ta'kidlab o'tiladi. Masalan, Xuroson - «Xur» (quyosh) va «on» (joy) so'zlaridan, ya'ni «Quyosh chiqadigan o'lka» ma'nosida keladi. Panjdeh esa «besh qishloq» ma'nosini bildiradi.

Sharqshunoslikning rivojlanishi bilan Eron joy nomlari G'arb olimlarining ham e'tiborini tortdi. Bu davrda, asosan, kartografiya va arxeologik qidiruvlar natijasida toponimlar qayd etila boshlandi. Ushbu olimlardan V. Minorskiy nafaqat fors, balki turkiy va kurd qatlamlarini ham o'rganib chiqdi. Uning «Hudud al-olam» asariga yozgan sharhlari toponimik tahlilning yuksak namunasi hisoblanadi. «Hudud al-olam» — milodiy 982-yilda (hijriy 372-yil) noma'lum muallif tomonidan fors tilida yozilgan geografik traktatdir. Qo'lyozma 1892-yilda Buxoroda topilgan va keyinchalik rus sharqshunosi Aleksandr Tumanskiy qo'liga o'tgan. Shuning uchun ba'zan «Tumanskiy qo'lyozmasi» deb ham ataladi. Kitob o'sha davrdagi dunyo xaritasini tasvirlaydi. Unda okeanlar, dengizlar, tog'lar, daryolar va eng muhimi, dunyo mamlakatlari haqida batafsil ma'lumot berilgan. 1937-yilda mashhur rus sharqshunosi Vladimir Minorskiy ushbu asarni ingliz tiliga tarjima qilib, ulkan ilmiy izohlar bilan nashr ettirgan. Uning bu ishi asarni jahon ilm-faniga tanitgan. Kitob yozilgan davrda Eron hududi Somoniylar va boshqa mahalliy sulolalar boshqaruvida bo'lgan. Asarda Eronning turli viloyatlari alohida-alohida tavsiflanadi. Minorskiy nomlarni shunchaki tarjima qilmagan, balki har bir nomni etimologiyasi, aniq koordinatalari va zamonaviy dunyo xaritasi bilan solishtirgan holda hozirgi nomlanishi haqida batafsil izohlagan. Xuddi shu joy nomi boshqa geograflar asarlarida qanday yozilganini ham taqqoslangan. Olim toponimlarni tushuntirishda quyidagi uchta asosiy usuldan foydalanadi:

1. Ko'plab joy nomlari qadimgi pahlaviy (o'rta fors) yoki undan ham qadimgi avesto tillariga borib taqaladi. Masalan, خوزستان (Xūzistān) toponimini Minorskiy «Xuz» (Elamliklarning avlodlari bo'lgan mahalliy qabila) va «-iston» makon qo'shimchasi bilan bog'laydi, ya'ni, «Xuzlar yurti». کرمان (Kirmān) nomini qadimgi Karmania shaklidan kelib chiqqani va uning «jangovar» yoki «ishchi» ma'nolariga yaqinligini tahlil qiladi. اصفهان (Iṣfahān)ni qadimgi Aspadana (otliq qo'shinlar yig'iladigan joy, «aspa» – ot) so'zidan kelib chiqqanini ko'rsatib o'tadi.

2. Ba'zi nomlar geografik joylashuvga qarab qo'yilgan:

جبال (Jibāl) - arabcha «jabal» (tog') so'zining ko'pligi, bu hududning ya'ni Markaziy Eronning juda tog'li ekanligini anglatadi. طبرستان (Ṭabaristān) - «tabar», ya'ni bolta so'zidan kelib chiqqan. Sababi, bu viloyat (hozirgi Mozandaron) o'sha davrda qalin o'rmonlardan iborat bo'lgan va odamlar yo'l ochish uchun boltadan foydalanishgan.

3. O'rta asrlarda yashagan yozuvchilar ko'pincha shaharlarni afsonaviy shohlar qurgan deb hisoblashgan. Minorskiy o'z sharhlarida bu afsonalarni keltirsa-da, ularni ilmiy tanqid ostiga oladi. نیشاپور (Nīshāpūr) - Sosoniy hukmdori Shopur I nomi bilan bog'liqligi ma'lum. Yozuvchi bu nomni asli New-Shapur ekanligini tushuntiradi. ری (Rayy) - qadimiy manbalarda Ragha deb atalganini va bu nom Zardushtiylikning muqaddas kitobi «Avesto»da tilga olingan eng qadimiy 16 ta maskandan biri ekanini ta'kidlaydi.

Britaniyalik sharqshunos G. Le Strange oʻrta asr manbalarini tizimlashtirib, Eronning tarixiy xaritasini tiklab, nomlarning fonetik jihatdan oʻzgarishlarini koʻrsatib bergan. Muallif Eronni oʻrta asr geograflari anʼanasiga koʻra quyidagi yirik maʼmuriy birliklarga ajratadi: Fors viloyati - Islomdan oldingi Sosoniylar davlatining markazi. Le Strange bu yerda Sheroz shahrining yuksalishi va qadimgi Istaxr shahrining tanazzulini batafsil yoritadi. Jibal - Hozirgi Tehron, Isfahon va Hamadon hududlari. Muallif bu yerda qadimgi Ray shahrini moʻgʻullar bosqiniga qadar Sharqning eng ulkan metropollaridan biri boʻlganini tasvirlaydi. Ozarbayjon va Mugʻon - Tabriz shahrining moʻgʻullar va Elxoniylar davrida qanday qilib poytaxtga aylangani va uning xalqaro savdodagi oʻrni tushuntirilgan. Xuroson - Le Strange bu yerda Nishopur, Marv va Hirot kabi «toʻrtta ustun» shaharlar haqida toʻxtalib oʻtadi. Kitobning Eron qismida «Xuroson yoʻli» markaziy oʻrin tutadi. Bu Bagʻdoddan boshlanib, Hamadon, Ray va Nishopur orqali Movarounnahrga olib boruvchi asosiy arteriya boʻlgan.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab toponimika mustaqil fan sifatida shakllandi. Endi tadqiqotlar nafaqat tarixiy, balki lingvistik nuqtayi nazardan ham olib borila boshlandi. Bunda joy nomlarining yasalish qoliplari va ularning maʼnaviy guruhlari alohida ajratib koʻrsatildi. Shuningdek, bu davrdan boshlab Eron toponimiyasi faqat geografik nuqtai nazardan tavsiflash emas, balki chuqur lingvistik va etimologik tahlil obyektiga ham aylandi. Gʻarb olimlari joy nomlarining hind-yevropa va qadimgi eroniy tillar bilan bogʻliqligini oʻrganishga eʼtibor qaratdilar. Taniqli nemis sharqshunosi va filologi Vilhelm Eylers olib borgan tadqiqotlar Eron toponimikasining metodologik asosini tashkil etadi.

Eylers Shimoliy Eron toponimlarini tahlil qilar ekan, ularni maʼlum bir semantik guruhlarga ajratadi. Uning tadqiqotida keltirilgan nomlar koʻpincha tabiat, ranglar, hayvonlar va inson faoliyati bilan bogʻliq. 1982-yilda Myunxen shahrida, Bavariya Fanlar akademiyasi tomonidan uning «Iranische Ortsnamen» («Eron joy nomlari») kitobi nashr etiladi. Kitob, asosan, Shimoliy Eron hududidagi toponimlarning kelib chiqishi, ularning strukturasi va lisoniy xususiyatlarini tahlil qilishga bagʻishlangan. Eylers nafaqat nomlarni sanab oʻtadi, balki ularning qanday mantiq asosida paydo boʻlganini ham tushuntirib beradi; Shimoliy Eronning geografik landshafti va bu joylarning xalq tilidagi nomlanishini oʻrganadi; nomlarning fors, kurd, mozandaron va boshqa mahalliy shevalardagi ildizlarini qidiradi; soʻzlarning qadimgi eroniy tillardan hozirgi kungacha boʻlgan evolyutsiyasini koʻrsatadi; nima uchun maʼlum bir joyga aynan shu nom berilganligining sabablarini izohlaydi. Kitobda toponimlar quyidagi kategoriyalar boʻyicha guruhlangan: gidronimlar - daryo, koʻl va buloq nomlari; oronimlar- togʻ, choʻqqi va dovon nomlari; oykoniymalar - shahar va qishloq nomlari.

Eylers koʻplab nomlarni bevosita joylarda yurib, mahalliy aholi talaffuzida yozib olgan. Bu nomlarning aksariyati rasmiy xaritalarda boshqacha shaklda uchrashi yoki umuman qayd etilmagan boʻlishi mumkin. Yozuvchi Eron toponimiyasida «nom berish qonuniyatlari» mavjudligini ham

isbotlaydi. Masalan, joy nomlarida ranglarning yoki hayvon nomlarining ishlatilishi ma'lum bir geografik mantiqqa ega. Ya'ni ranglar nafaqat vizual ko'rinishni, balki geografik xususiyatlarni ham anglatadi:

سیاه (Siyāh). Masalan, Siyāh-Kūh (Qora tog'). Eylersning tushuntirishicha, bu yerda «qora» termini qalin o'rmon bilan qoplangan yoki soyali tog'larga nisbatan ishlatiladi.

سفید (Sefid). Sefid-Rūd (Oq daryo) - bu daryo o'zining ko'pikli va loyqa suvi tufayli shunday nomlangan.

سرخ (Sorx). Sorxe-Hessār - tuproq tarkibidagi temir oksidi tufayli qizil ko'ringan hududlar.

Muallif shimoliy Eronning gidrografiya juda boyligi, shuning uchun u tomonlarda «آب» (suv) so'zi bilan bog'liq nomlar juda ko'p uchrashini ham ta'kidlab o'tadi. Misol uchun, آب گرم (Āb-i garm) – bulog'i shifobaxshligi uchun; آب شور (Āb-i shūr) – sho'r suvli daryoligi uchun shunday nomlangan.

Eylers yovvoyi hayvonlar ham Eronning ma'lum bir joylari nomlanishiga ta'sir ko'rsatganini alohida qayd etadi. Masalan, پلنگ کوه (Palang-Kūh), گرگ دره (Gorg-Darre), مار کوه (Mār-Kūh) va boshqalar.

Taniqli olim Ehsan Yarshater rahbarligida asos solingan "Encyclopaedia Iranica" ("Eron ensiklopediyasi") loyihasi zamonaviy eronshunoslikning cho'qqisi hisoblanadi. Bu Eron tamadduni, tarixi, madaniyati, tili va adabiyotini o'rganuvchi eng yirik akademik loyihadir. Ushbu ensiklopediyada Eronning har bir yirik shahri, daryosi va tog' tizmasi bo'yicha alohida maqolalar jamlangan. Loyiha doirasida toponimlar nafaqat lingvistik, balki arxeologik va sotsiomadaniy jihatdan ham tahlil qilingan. Ma'lumotlar faqat Eron bilan cheklanib qolmay, O'rta Osiyo, Kavkaz, Afg'oniston va Hindistonning bir qismini ham qamrab oladi. Yarshaterning izlanishlari shuni ko'rsatadiki, eroniy toponimlar asosan ikki komponentdan iborat: geografik xususiyat + suffiks. Masalan:

-kand / -qand qo'shimchalari so'g'diycha kanθa (shahar, qo'rg'on) so'zidan kelib chiqqan. Misol: Samarqand (so'g'diycha: asmara — tosh, kanθa — shahar).

-gard / -jard qo'shimchalari qadimgi forscha varda (o'ralgan joy, qal'a) so'zidan. Misol: Yazdegard (Yazd tomonidan asos solingan shahar). Ayrim manbalarda hozirgi rus tilidagi "город" so'zining asosi ham -gard qo'shimchasidan kelib chiqqanligi aytiladi.

-stan - «joy», «makon» ma'nosida, ایستادن (istādan) fe'li negizidan kelib chiqqan. Misol: Sistan (Sakastan — Saklar makoni).

Shuningdek, ensiklopediyada arab tilida ayrim tovushlarning yo'qligi sababli, ko'plab forscha toponimlar arabcha talaffuzga moslashtirilganligi ham yoritiladi. Bu tilshunoslikda arabizatsiya (arablashtirish) jarayoni deb ataladi. Misol uchun, فارس – پارس: arab tilida «پ» tovushi yo'q, shuning uchun «ف» ga o'zgargan. Yoki گرگان – جرجان: arab tilida «گ» o'rniga «ج» ishlatilgan.

Eronning o'zida ham joy nomlarini o'rganish bo'yicha kuchli maktab shakllantirilgan. Ular hududiy tamoyil asosida ishlaydilar. M. Mahryar va L. Baxtiyoriy Isfahon, Fors va Xuroson kabi tarixiy viloyatlar toponimiyasini mahalliy shevalar bilan bog'lab tadqiq qildilar.

Xulosa. Eron toponimiyasiga oid tadqiqotlarning qisqacha sharhi shuni ko'rsatadiki, bu soha nafaqat tilshunoslik, balki mintaqa tarixining jonli xotirasidir. Eron joy nomlari qadimgi eroniy, somiy va turkiy tillarning sintezidan iborat bo'lib, bu mamlakatning sivilizatsiyalar chorrahasi bo'lganini tasdiqlaydi. V. Eylers, E. Yarshater kabi olimlarning ishlari toponimlarni shunchaki nom emas, balki ma'lum bir qonuniyatga ega bo'lgan lingvistik tizim sifatida o'rganishga zamin yaratdi. Ko'plab joy nomlari asrlar davomida fonetik o'zgarishlarga uchragan bo'lsa-da, ularning o'zagi o'z barqarorligini saqlab qoldi.

Eron toponimiyasini o'rganish O'zbekiston sharqshunosligi va tilshunosligi uchun ham katta ahamiyatga ega. Zero Markaziy Osiyo va Eronning toponimik manzarasi bir xil tarixiy-madaniy ildizlarga ega ekanligi, qiyosiy-tipologik tadqiqotlar o'tkazish uchun keng imkoniyatlar ochadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Eilers W. Geographische Namengebung in Nordpersien. – München: Bayerische Akademie der Wissenschaften, 1982. – 168 s.
2. Le Strange G. The Lands of the Eastern Caliphate: Mesopotamia, Persia, and Central Asia from the Moslem Conquest to the Time of Timur. – Cambridge: Cambridge University Press, 1905 (Reprinted 2011). – 536 p.
3. Minorsky V. Hudud al-Alam: The Regions of the World. – London: Oxford University Press, 1937. – 524 p.
4. Qazvini Hamd-Allah. The Geographical Part of the Nuzhat-al-Qulub / Trans. G. Le Strange. – Leiden: Brill, 1919. – 322 p.
5. Yarshater E. (Ed.). Encyclopaedia Iranica. – London; New York: Routledge & Kegan Paul.
6. Аскеров М. М. Структура и семантика иранского пласта топонимии Азербайджана: Дис. ... канд. филол. наук. – Баку, 1984. – 186 с.
7. Афшар М. Лингвокультурный образ Ирана в русских художественных и публицистических текстах: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – М., 2024. – 24 с.
8. Жучкевич В. А. Общая топонимика. – Минск: Высшая школа, 1968. – 432 с.
9. Ирматов Б. М. Метод использования материала в «Му'джем ал-Булдан» Якута ал-Хамави: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1993. – 22 с.
10. Казвини Хамдаллах. Нузхат ал-кулуб (Материалы по Азербайджану) / Пер. И. П. Петрушевского. – Баку: Изд-во АзФАН, 1942.
11. Никонов В. А. Введение в топонимику. – М.: Издательство ЛКИ, 2011. – 184 с.
12. Резаи Р. Социально-географическое развитие города Тегеран. – М., 2012. – 156 с.
13. <https://www.iranicaonline.org>
14. <http://www.vostlit.info/Texts/rus6/Kazvini/pred.phtml?id=2334>